

AQLI ZAIF O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI

Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon o'g'li

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Halilova Xavasxon Isomiddin qizi

Qo'qon DPI Oligofrenopedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada aqli zaif o'quvchilar nutqini o'stirish usullari va ularni aniqlash, olimlar tomonidan o'rganilishi, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va ularda uchraydigan muloqot xususiyatlari ilmiy va nazariy jihatdan atroflicha keltirib o'tilgan. Ularda uchraydigan muloqotning turli xususiyatlari haqida maktabga tayyorlash ishlari xususida so'z yuritilgan. Aqli zaif bolalarni nutqini o'stirish turli usul va vositalardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar. Aqli zaif, nutq o'stirish, ta'lim ehtiyojlari, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, muloqot, nutq faoliyati, bilish jarayonlari, spektr, maktab ta'limi, xulq-atvor, diqqat, xotira, tafakkur

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, kelajakda Vataniga, yurtiga kerakli inson qilib tarbiyalash yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Kelajakda m'lum bir kasb-hunarni tanlashi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Buning yo'lida yoshlikdan boshlang'ich ma'lumotlar bilan qurollanishdan iborat bo'ladi. Nogironlarni ijtimoiy va xuquqiy jihatdan ximoya qilish ularni kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha yurtimizda bir qator qarorlar o'z aksini topmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 15-oktabr, O'RB-641-sonli qarori Qonunchilik va Senat tomonidan maqullandi. Ushbu Qonunning maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuni ta'kidlab o'tish joizki ushbu qonunning 6-7 boblarida nogironlarni kasb-hunarga tayyorlash va sharoitlarni yaratish haqida bir qancha yo'nalishlar belgilab berilgan. Nutq inson faoliyatining yetakchi faoliyati hisoblanadi. Chunki inson atrof muxitdagi asosiy ma'lumotlarni muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Nutq — bu kommunikatsiya ya'ni aloqa vositasi hisoblanib, har bir inson o'z tanlagan faoliyatini jamiyat a'zolariga o'rgatish va o'rganishda bevosita foydalanib keladi.

Barchamizga ma'lumki, sog'lom insonlar nutqining rivojlanishi atrofdegilar, yaqinlari e'tiboriga bog'liq holatda amalga oshib boradi. Bunda birinchi o'rinni farzandning ota-onasi egallaydi. Ota ona farzandini jismonan va aqliy jihatdan rivojlantirib boradi. Sog'lom insonlarda barcha jarayonlar asta sekinlik bilan rivojlanib boradi. Agar farzandining intellektida biror bir jarayonlar orqada qolsa yoki og'ir aqli nuqsonga ega bo'lsa, har tomonlama ota va onaga ruxiy zarba bo'ladi. Bu esa bolada

aqliy yetishmovchilik sabab ikkinchi bir nuqsonni yuzaga chiqarishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday kamchiliklardan biri bu aqli zaif o'quvchilar nutqidir. Aqli zaif o'quvchilar nutqi ustida bir nechta olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida faoliyat olib borishgan. Ulardan M.F. Gnezdilov, V.G. Petrova, O.V. Kashe, Ye.V. Orlova, V.V. Voronkova, V.S. Raxmonova va boshqa olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra birinchi sinfga kelgan aqli zaif o'quvchilarning 66%i da talaffuz nuqsonlari uchraydi deb ilmiy jihatdan asoslab bergan. Aqli zaif o'quvchilar bilan logopedik ishlarni qanchalik erta boshlash amalga oshiriladigan ishning yanada erta bartaraf etishga imkon beradi.

Bilamizki nutq bevosita umumiy matorika va aynan mayda qo'l matorikasi bilan bog'liq. Aqli zaif o'quvchilar nutqini o'stirishda texnologiya darslarining o'rnini nihoyatta katta. Chunki bu dars orqali o'quvchilarda barcha ruxiy jarayonlar (tafakkur, tasavvur, xotira, sezgi, idrok) bilan birga analizatorlar (ko'rish, eshitish, teri taktil, harakat, nutq) faoliyati ham bevosita ishtirok etadi. Tadqiqotlarga qaraganda insonning biror bir ma'lumotni o'zlashtirishida uning nechta analizatorlarining ishtirok etishiga bog'liq. Chunki bola bir vaqtning o'zida o'rganilayotgan predmet nomini eshitadi, ko'radi, ushlaydi, uning rasmini chizadi va nomini og'zaki nutq orqali takrorlaydi. Aqli zaif o'quvchilar nutqini o'stirishda texnologiya darslarida qurish-yasash jarayoni muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Darslar jarayonida o'quvchilarga oddiy bo'lgan elementar harakatlar va ma'lumotlar ham og'zaki holatda aytishga o'rgatish va qayta so'rab olish yuqori natijalarga erishishga turtki bo'ladi. O'rgatish jarayonida qayta-qayta takrorlatish aqli zaif o'quvchilarda ma'lum darajada ko'nikmalarga erishish mumkin bo'ladi. Sizda savol tug'ulishi mumkin. Qanday qilib aqli zaif o'quvchilarning nutqini texnologiya darslarida o'stirish mumkin? Texnologiya darslarining nutq faoliyatiga qanday aloqasi bor?

Aqli zaif o'quvchilar nutqini texnologiya darslarida rivojlantirishda ko'zlangan maqsadlardan biri mayda qo'l matorikasini rivojlantirish muxim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, aqli zaif o'quvchilar mayda qo'l matorikasi birmuncha sust rivojlanganligi sababli ular bilan korreksion ishlarni amalga oshirish yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki harakatlarni rivojlanishi nutq markazlarini qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Texnologiya darslarida o'quvchilarni oddiy ko'nikmali harakatlar orqali qo'l barmoqlaridagi sensor tizimini uyg'otishga mashqlar orqali harakatli mashg'ulotlarni amalga oshirilib boriladi. Qo'l matorikalarini rivojlanib borganligini oddiy ko'nikmalar: mayda detallarni qo'l barmoqlari yordamida ushlashi, predmetlarni o'z o'rniga joylashi, qo'l bilan ushlab nomlashi, oddiy qog'ozlarni qaychi yordamida qirqib bo'laklarga bo'lishi va boshqa harakatlar orqali bajaraladigan ishlar va aynan ishlarni yakunlash jarayonida hosil bo'lgan manzarani yoki predmetni nomlashi uning nutqida verbal yoki noverbal tarzda o'rin olishi aqli zaif o'quvchilar nutq markaziga harakatlar orqali ta'sir ko'rsatilganligidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan barcha ishlar amaliy xarakterda amalga oshirilishi ya'ni turli metodikalar orqali bajarilishi muhim hisoblanadi. Texnologiya darslarida o'quvchilarga piyola haqida tushuncha berishda va faol nutq orqali qo'llashda bir necha usullardan foydalanishimiz mumkin. Birinchi usul: aqli zaif o'quvchiga piyola rasmi ko'rsatiladi. Bola nimaligini bilsa ham nomlay olmasligi mumkin. Ikkinchi usul: qanday jarayonlarda ishlatilishi haqida ma'lumot beriladi. Uchinchi usul : piyola rasmini chizdiriladi va tayyor bo'lgan rasmni qaychi yordamida qirqib, bir nechta mayda bo'laklarga bo'linadi va bo'laklardan piyola rasmini yeg'ish topshiriladi. Shundan so'ng bolaga hosil bo'lgan predmetni nomlashi va talaffuz qilishi so'raladi. Aqli zaif o'quvchilarning aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ongining pastligi sababli piyolani asli holatdagisi bolaga beriladi. Nimaligi so'raladi, qay maqsadda foydalaniladi (kerak bo'lsa esida qolishi uchun piyola orqali suv ham ichiriladi) kabi savollar beriladi.

Texnologiya darslarida aqli zaif o'quvchilarni mayda qo'l matorikasini rivojlantirish orqali nutqiy faoliyatini ham rivojlantirib boriladi. Shunday ekan o'quvchilarda texnologiya darslarining o'rnini nihoyatda yuqori o'rinni egallaydi. Biror bir predmet haqida tushuncha berishda nafaqat aqli zaif o'quvchilarda, balki so'lom rivojlanayotgan bolalarda ham bir vaqtning o'zida bir nechta analizatorlardan foydalanish ko'zlangan maqsadlarga erishishda katta ro'l o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: “Ўзбекистон”, 1992 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. Т.: "2020 й. <http://www.lex.uz/act/16188>
3. Ўзбекистон Республикасининг « Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги Қонуни. Т.: 2008 йил.
4. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjan. "METHODS OF STUDYING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF MENTALLY WEAK STUDENTS OF Q HOME CLASS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES."
5. O'gli, Nabiye Ravshanjan Shavkatjon. "Methods of studying the educational activity of mentally weak students of Q home class on the base of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 21-25.
6. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "INTELEKTIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O'ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.
7. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.
8. Shavkatjon o'g'li, Nabiye Ravshanjon. "CONDUCT A CULTURE OF STUDENTS WHO ARE DEFICIENT IN INTELLIGENCE THE WAY OF THE

FORMATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 551-557.

9.Nabiyev, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." *Евразийский журнал академических исследований* 3.10 (2023): 363-367.

10.Nabiyev, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." *Евразийский журнал академических исследований* 3.10 (2023): 363-367.

11.Shavkatjon o'g'li, Nabiyev Ravshanjon. "Boshlang 'Ich Sinf Aqli Zaif O 'Quvchilar Nutqini O 'Stirish." *Research And Education* 1.1 (2022): 263-267.

12.Ogli, Nabiev Ravshanjon Shavkatjon, and Quchqorova Farida Erkin Qizi. "Features of the Higher Nervous Activity and Psychic Processes of Students with Intellectual Deficiencies." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 19 (2023): 146-151.

13.Nabiyev, R. Sh. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING SHAXSI VA SHAXSLARARO MUNOSABATI XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH METODLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 129-134.

14.Ogli, Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon, and Ortiqboyeva Parizoda Ismoiljon Qizi. "Families of Children with Defects in the Development of Pedagogical-Psychological Work." *Journal of Pedagogical Inventions and Practices* 19 (2023): 143-146.

15.Islomjon, Haydarov. "Excursion Lesson, The Role Of Students With Hearing Impairment In The Study Of Natural Science." *Onomázein* 62 (2023): December (2023): 1958-1963.

16.Islomjon, Haydarov, and Nabiyeva Nozimakhan. "SYSTEM OF DEVELOPMENT OF AUDITORY PERCEPTION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 1096-1101.

17.Islomjon, Haydarov. "PERIODS OF TEACHING PRONUNCIATION." *Open Access Repository* 9.11 (2023): 221-224.

18.Islomjon, Haydarov, and Odilova Rushanabonu. "ORAL SPEECH AND ITS DEVELOPMENT FEATURES." *Open Access Repository* 9.11 (2023): 206-209.

19.Islomjon, Haydarov, and Odiljonova Saminakhan. "DIFFERENTIATION OF SENTENCES IN SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN THE CONTENT AND ORDER OF THE WORK CARRIED OUT ON." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 1071-1075.

20.Islamjan, Haydarov. "FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF HEARING-IMPAIRED STUDENTS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN SCIENCE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 536-540.

21.Hatamjon O'g'li, Haydarov Isломjon. "PECULIARITIES OF THE USE OF SCIENCE TEACHING METHODS IN A SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN." *International Journal of Pedagogics* 3.11 (2023): 1-5.

22. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA O'QUVCHILARNI TABIATSHUNOSLIK HAQIDAGI BILIMLARINI EKSKURSIYALAR ORQALI SHAKILLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.

23. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA TABIATSHUNOSLIKNI O 'QITISHNING ASOSIY METODI SIFATIDA-TAJRIBA METODI VA AMALIY ISHLAR." *HOLDERS OF REASON* 1.1 (2023): 36-40.

24. Islomjon, Haydarov. "In this article, the importance of excursions in specialized educational institutions for students with hearing impairments and ways to shape their knowledge of Natural Science through excursions. Information is provided about the corrective-pedagogical o." *Onomázein hosts unpublished articles derived from scientific research* (2023): 1958-1963.

25. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISH QOBILIYATINI BUZILISHI VA YO'QOTISH SABABLARI." *Conferencea* (2023): 83-86.

26. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ENVIRONMENTAL EDUCATION OF HEARING-IMPAIRED PRESCHOOL CHILDREN BY SHAPING THEIR KNOWLEDGE OF NATURE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 510-513.

27. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "EDUCATION OF STUDENTS WITH HEARING DEFECTS THROUGH SCIENCE LESSONS DEVELOPMENT OF SPEECH AND THINKING." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 837-844.

28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги 4947-сон Фармони.

29 Сборник материалов ИИ научно-практической конференции с международм участием «Семья особого ребенка» (19 ноября 2020 г., г. Москва)

30. Ауталипова У.И. Психолого-педагогические проблемы в воспитании детей дошкольного возраста в условиях семи. В сб. мат-лов межд.конф. «Новие подходи и пути обучения, воспитания, коррекции и интеграции детей с проблемами в развитии». Бишкек, 1998.

31. Васильева, А.К. Структура семьи. // А.К. Васильева М.: Педагогика, 1988.– 164с.

32. Венгер, Л.А., Домашняя школа. // Л.А. Венгер М.: Просвещение, 1994. – 352с.

33. Воспитание и обучение детей во вспомогательной школе./Под ред. В.В. Воронковой. М.: Школа – Пресс, 1994. – 190 с.